

## TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA XALQARO TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARINING IQTISODIY VA TEKNOLOGIK MUHITIDAGI STRATEGIK TENDENSIYALARI

*Bekmurodov Abbas Amiriddinovich*

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0003-0830-5119

[abbos85@umail.uz](mailto:abbos85@umail.uz)

**Annotatsiya.** Maqolada tijorat banklari faoliyatiga xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlarini joriy etishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlili keltirilgan, tijorat banklari faoliyatida xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlarining iqtisodiy va texnologik muhitidagi strategik tendensiyalari yoritib berilgan. Ilmiy tadqiqotlar asosida bank xizmati ko'rsatishni oxir-oqibat mijozning bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga va bank tomonidan ular uchun haq olishga yo'naltirilgan operatsiya va bitimlar sifatida xalqaro jarayonlarga monand ravishda transformatsiyalashuvini ta'minlash, raqamlı texnologiyalar asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan

**Kalit so'zlar:** transformatsiya, monetar yondashuv, marketing yondashuvi, mijozlarga yo'naltirilganlik, bank xizmati, bank mahsuloti, mobil ilovalar, bank segmenti

## СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ПРОЦЕССОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРСЕСКИХ БАНКОВ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ СРЕДЕ

*Бекмуродов Аббос Амиридинович*  
Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** В данной статье представлен анализ научно-теоретических подходов, направленных на внедрение международных трансформационных процессов, освещены стратегические тенденции в экономической и технологической среде международных трансформационных процессов в деятельности коммерческих банков РУз. Обоснованы целесообразности обеспечить трансформацию в виде транзакций и трансакций, направленных на удовлетворение потребности клиента в банковских услугах и взимание платы на основе цифровых технологий.

**Ключевые слова:** трансформация банков, монетарный подход, маркетинговый подход, клиентоориентированность, банковская услуга, банковский продукт, мобильный банкинг, банковский сегмент.

## STRATEGIC TRENDS IN THE PROCESSES OF INTERNATIONAL TRANSFORMATION OF COMMERCIAL BANKS IN THE ECONOMIC AND TECHNOLOGICAL ENVIRONMENT

**Bekmurodov Abbas Amiriddinovich**  
Samarkand Institute of Economics and Service

**Annotation.** This article presents an analysis of scientific and theoretical approaches aimed at the introduction of international transformation processes, highlights strategic trends in the economic and technological environment of international transformation processes in the activities of commercial banks of the Republic of Uzbekistan. Justification of the expediency to ensure transformation in the form of transactions and transactions aimed at meeting the customer's need for banking services and charging fees based on digital technologies.

**Keywords:** transformation of banks, monetary approach, marketing approach, customer orientation, banking service, banking product, mobile banking, banking segment.

### Kirish.

Hozirgi vaqtda tijorat banklari faoliyatiga xalqaro transformatsiyalashuvning jadallahushi bilan bank mahsulotlari va xizmatlarining barcha turlarini raqamli xizmatlar va platformalardan foydalanishga asoslangan masofaviy amalga oshirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, raqamli xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanish avvalo bank sohasida raqobat muhitining kengayishi bilan ham bog'liqdir. Bank faoliyatini tartibga solish borasida talablarning kuchayib borishi, iqtisodiy kon'yunkturaning o'zgarishi, valyutalar volatilligining oshishi, shuningdek, qo'llanilayotgan axborot-tahliliy texnologiyalarning talab darajasida emasligi natijasida ana'naviy banklarning moliyaviy xizmatlar infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha raqobat kurashidagi pozitsiyasini kuchsizlanishiga olib kelmoqda. Bu borada tijorat banklari faoliyatida xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlarining iqtisodiy va texnologik muhitidagi strategik tendensiyalarini aniqlash va unga uyg'unlashuv lozim.

### Adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklari faoliyatiga xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlarini keng tatbiq etishga qaratilgan tadqiqotlar xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan o'rganilmoqda. Jumladan, Xorijlik olimlardan Markovits (1991), Sharp (2021) tadqiqotlarida banklar faoliyati portfel nazariyasi doirasida ko'rib chiqilgan bo'lib, "...bank riskning mumkin bo'lgan darajasini hisobga olgan holda aktivlarning shunday nisbatini shakllantirishi lozimki, bunda likvidlilikning ma'lum koeffitsiyentiga rioya etishni ta'minlash sharti bilan maksimal daromad olinishi kerak".

Ahamiyatga molik bo'lgan tadqiqotlar ichida xorijlik olimlar Amit va Zott (2007)lar tomonidan xalqaro transformatsiya jarayonlari "...mahsulotlari va xizmatlaridan masofaviy foydalanish imkoniyatini to'laqonli amalga oshirish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalardan foydalanish" ga qaratilganligini ham alohida ta'kidlab o'tishimiz joizdir.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya, guruhash, mantiqiy tahlil usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini umumiy yaxlit tarzda ifodalash maqsadida jadval va rasmlardan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda tijorat banklari faoliyatida xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlarining iqtisodiy va texnologik muhitidagi strategik tendensiyalarini shartli ravishda to'rtta yondashuvga asoslanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin:

1. Monetar yondashuvga Lavrushin, (2015), Parusimova (2013), Golovin (2000), Altinbayev (2018), Abdullayeva (2023), Izbosarov (2023), Tog'ayev (2021) va boshqo ko'ra, bank faoliyatini tasniflovchi bosh jihat pul bo'lib, u ob'ektiv iqtisodiy qonuniyatlar talabidan kelib chiqqan holda banklar tomonidan shakllantiriladi. "...pul to'lov vositalari ko'rinishidagi alohida tovarni, banklar tomonidan ma'lum muddatga sotiladigan yoki taqdim qilinadigan pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarni, pul ko'rinishidagi turli xildagi xizmatlarni, pul emissiyasiyani, jumladan elektron shaklda va aniq bank hujjatini (jumladan, chek, veksel, sertifikat va x.k.) o'z tarkibiga oladi" (Lavrushin, 2009).

Fikrimizcha, mazkur yondashuvga xos bo'lgan asosiy kamchiliklar sifatida birinchidan, bank xizmatlari va operatsiyalari tushunchalari o'rtasida aniq (sezilarli) farq mavjud emas, ikkinchidan, "bank mahsuloti" tarkibiga bank faoliyatining qimmatliklarni saqlash, informatsion xizmat ko'rsatish va boshqa turlari kiritilmagan, uchinchidan, bank mahsulotining pul ko'rinishida bo'limgan elementlari inobatga olinmagan (masalan, kreditni taqdim etishish faqat pul berish bilan chegaralanmaydi, bu jarayonning monitoringini amalga oshirish, baholash va kreditning qaytarilishi hamda maqsadli ishlatalishini nazorat qilish kabi tarkibiy qismlari mavjud)ligini keltirishimiz mumkin.

2. Marketing yondashuvi Utkin (1994), Guryanov (2006), Ivanov (2002), Tavasiyev (2005), Allayorova (2009), Mirzamaydinov (2008), Ibodov (2016). Ushbu yondashuv doirasida "bank mahsuloti" tushunchasi mavjud emas, chunki unga "bank product" so'zining unchalik to'g'ri bo'limgan tarjimasi sifatida qaralgan.

3. Huquqiy yondashuv. Ushbu yondashuvning asosiy qoidalari bank va bank faoliyatiga doir qonunchilik hujjatlarida o'z aksini topgan. Shu o'rinda alohida qayd etish zarurki, mamlakatimiz bank qonunchiligidagi "bank mahsuloti" tushunchasi ko'rib chiqilmagan, shuningdek, "bank xizmati" va "bank operatsiyalari" tushunchalariga ham to'liq ta'rif berilmagan. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunida "bank xizmatlari" tushunchasi batafsil yoritilmagan, bank faoliyatining o'ziga xos xususiyati bank operatsiyalari va bitimlari asosida aniqlangan, bunda "bitim" va "operatsiya" ma'nodosh tushunchalar sifatida ko'rib chiqilgan.

4. Mijozlarga yo'naltirilganlik yondashuvi Korobova (2015), Maslenchenkov (2013), Galitskaya (2008), Mirzayev (2010), Aliqoriyev (2011), Ibodov (2016). Mazkur yondashuv doirasida asosiy e'tibor mijozga qaratilib, bank operatsiyasi mijozlar talabini qondirish (xizmat ko'rsatish) uchun bank xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan hatti-harakatlar majmui tariqasida tasniflanadi. Bunda bank xizmatiga bank operatsiyasini bajarishdan olingan natija sifatida qaraladi.

Bizning fikrimizga ko'ra, taklif etilgan va ishlab chiqilgan turli konsepsiya, yondashuvlar umumiyligi holda bank tashqi xususan, bank bozorining o'zgaruvchanligi va beqarorligi sharoitida ishtirokchilarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga, transaksion harajatlarni kamaytirishga, o'zaro axborot simetriyasini ta'minlashga, iqtisodiy munosbatlarda tijorat banklarining salmoqli o'rni mavjudligiga e'tibor qaratishgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda chakana bank xizmatlari sohasida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Yangi texnologiya va innovatsiyalar, tartibga solish tizimining murakkablashib borishi, moliyalashtirish turlarining kengayishi, banklar tomonidan fintex kompaniyalarini harid qilish jarayonlarining faollashuvi, "...mijozlar kutilmalarining oshib borishi an'anaviy biznes modellarning samaradorligini pasaytiruvchi omillarga aylanib bormoqda" (Retail Banking, 2025). Mazkur omillarning yaqin istiqboldagi ta'siri bank faoliyatining iqtisodiy muhitidagi strategik tendensiyalarini quyidagi yo'nalishlarida aks ettiradi:

Front-ofis tizimidagi inqilob. Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan an'anaviy chakana xizmatlarning aksariyat qismi mijozlar bilan bevosita muloqotga asoslangan front-ofis bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Ana'anaviy bank xizmatlari bozoriga tajovuzkor tarzda kirib kelayotgan yangi ishtirokchilar bank faoliyatining front-ofis bilan bog'liq "tashqi qismi"ni o'z platformalariga kiritib borishmoqda. Texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari va

ko'ngilochar dasturlar sohasida global brend va obro'-e'tiborga ega bo'lgan kompaniyalar mijozlar bilan muloqotning innovatsion shakllarini yaratish va ularga giperpersonalashtirilgan xizmatlarni taklif etish imkoniyatiga egadir.


Moliyaviy xizmatlar landshaftida noaniqlik darajasining oshib borishi. Iqtisodiy kon'yukturaning o'zgarishi, rivojlangan mamlakatlarda infliyatsiya darajasining ko'tarilishi, jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanilayotgan sansiyalarning keskinlashuvi, mablag'larni "muzlatish" holatlarining ko'payishi va boshqa ko'plab omillar global moliyaviy institutlar faoliyati samaradorligiga nisbatan bo'lgan ishonch darajasining pasayib borishiga olib keldi.

Markaziy banklar tomonidan muomalaga kiritilayotgan raqamli valyutalar ahamiyatining oshib borishi. Naqd pul operatsiyalarini hajmini pasaytirish borasida markaziy banklar tomonidan olib borilayotgan siyosati tizimga raqamli valyutalarni joriy etish borasidagi chora-tadbirlarning faollashuviga olib keldi. Muayyan mamlakatlarda CBDC yordamida hisob-kitoblarning b2b, b2c, c2c segmentlarida qo'llash imkoniyatining kengayishi tijorat banklari oldida eng kamida deyarli ikkita hal qilinmaydigan muammoni yuzaga keltirmoqda.

Tijorat banklari faoliyatida xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlarining texnologik muhittdagi strategik tendensiyalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Chakana bank xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan va bank litsenziyasiga ega bo'lgan tashkilotlar tomonidan mobil ilovalardan foydalanish ko'laming kengayib borishi. Yevropada joylashgan 14 ta raqamli banklarning mobil ilovalari 2021 yilning noyabr oyidan 2022 yanvar oyi davomida deyarli 3 mln. marotaba yuklab olingan. Yuklashning asosiy qismi (94 foizi) Yevropa mamlakatlariga to'g'ri kelgan. Mazkur banklarning ilovalari AQSH aholisi tomonidan 106 ming marotaba yuklab olingan. Bu birinchi navbatda, Revolut, Monzo va Starling Bank tomonidan AQSH hududida faol reklama kompaniyasining olib borilishi bilan izohlanishi mumkin (Information Technology & Services, 2022).

Ijtimoiy to'lovlar sohasining keskin rivojlanib borishi. Ijtimoiy to'lovlar sohasida bir qator o'zgarishlar yuz berayotganligi PayPal, Venmo ilovasi, Apple Cash, Square Cash App mobil ilovasi orqali taklif etilayotgan integratsiyalangan to'lov paketlari tijorat banklarining to'lovlar bozoridagi jiddiy raqobatchilariga aylanishini ta'minlab bermoqda (Forrester, 2022). Ammo shunga qaramasdan, bank kartalari va naqd pul orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar ustuvorlik kasb etmoqda (1-rasm).



**1-rasm. Xorijiy mamlakatlar tijorat banklarida iste'mol to'lovlarining o'rtacha oylik hajmi (mlrd.AQSH dollarida)**

*Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

P2P-tranzaksiyalar segmentida raqobat kurashining keskinlashishi. P2P-tranzaksiyalarni amalga oshirishga kumaklashadigan texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi fintex kompaniyalar bilan raqobat afzalliklarini yaratish uchun AQSH besh yirik banki pul o'tkazmalarining Zelle platformali servisini ishlab chiqib, P2P-tranzaksiyalar sohasida muayyan muvaffaqiyatga erishdi. Ammo PayPal, Venmo va Cash App Block tomonidan qo'shimcha funksionallarning taklif etilishi (xususan, s2b-to'lovleri) banklar uchun qo'shimcha muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Super-app texnologiyalarining joriy etilishi. Bugungi kunda dunyoning yetakchi banklari tomonidan faol o'r ganilayotgan masalalardan biri Super-app shakllantirish (mijoz uchun zarur bo'lgan funksiyalarni yagona interfeysda yig'ish) hisoblanadi. Mazkur masalaning yillik hisobot va biznes rejalarda qayd etish holatlari 2019-2021 yillar davomida 640 foizga ko'paygan.

### **Xulosa va takliflar.**

Mamlakatimizda so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy iqtisodiy tadqiqotlarda aksariyat bank bozori va bank xizmatlarining alohida xususiyatlari tadqiq etilgan, bank xizmatlarini bank operatsiyalarining bir turi sifatida ko'rib chiqishga alohida urg'u qaratilgan. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida bank xizmati mijozning bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga va bank tomonidan ular uchun haq olishga yo'naltirilgan operatsiya va bitimlar sifatida xalqaro jarayonlarga monand ravishda transformatsiyalashuvga, raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga muhtojdir.

Bu borada mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlarining strategik tendensiyalari sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

- tijorat banklari tomonidan texnologiyalar, OAV va ko'ngilochar dasturlar sohasida global brend va obro'-e'tiborga ega bo'lgan kompaniyalar mijozlari bilan muloqotning innovatsion shakllarini yaratish va ularga giperpersonallashtirilgan xizmatlarni taklif etish;
- markaziy banklar tomonidan muomalaga kiritilayotgan raqamli valyutalar ahamiyatining oshib borishi muhitida raqamli valyutalarni joriy etish borasidagi choratadbirlarning faollashtirish;
- chakana bank xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan va bank litsenziyasiga ega bo'lgan tashkilotlar tomonidan mobil ilovalardan foydalanish ko'laming kengaytirish;
- *p2p-tranzaksiyalar* segmentida xizmatlar ko'rsatishni kengaytirish;
- *Super-app* texnologiyalarining keng joriy etilishini ta'minlash.

### **Adabiyotlar/ Литература/ Reference:**

Izbosarov Z.Z. (2023) *Globallashuv sharoitida tijorat banklarining likvidliliginini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish» Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoreferat: 08.00.07 / Toshkent moliya instituti, -53 б.*

Markowitz, H.M. (1959). *Portfolio Selection: Efficient Diversification of Investments*. New York: John Wiley & Sons.(reprinted by Yale University Press, 1970, [ISBN 978-0-300-01372-6](#).

*Retail Banking (2025) and Beyond. Five scenarios for the future of retail banking. Building strength amid transition.*

Zott, Christoph & Amit, Raphael. (2007). *Business Model Design and the Performance of Entrepreneurial Firms. Organization Science. 18. 10.1287/orsc.1060.0232.*

Abdullayeva S.A. (2023) *Tijorat banklari to'lov qobiliyatini mustahkamlash yo'llari. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферат: 08.00.07 / Тошкент молия институти, -50 б.*

**Аликориев О.Ф.** (2011) «Тижорат банкларида молиявий хизмат турларини ривожлантириш йўналишлари» иқт. фан. номз дис. автореф. - Тошкент, - 28 б.

Аллаёрова Д.Н. (2009) Эффективность маркетинга в деятельности коммерческих банков Республики Узбекистан. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. -Т.: ТГЭУ.

Алтнбаев А.Я. (2018) Тижорат банкларининг ликвидлилик даражасини ошириш методологиясини таомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) дисс. автореферат: 08.00.07 / Тошкент молия институти, -95 б.

Галицкая С.В. (2008) «Деньги, кредит, банки». Полный курс. Москва изд. «Эксмо» -253 с.

Головин Ю.В. (2000) Комплекс социально-ориентированных банковских услуг и его роль в решении социальных проблем экономики: дисс. ... д-ра экон. наук: 08.00.10.С. Петербург. -250 с.

Гурьянов, С.А. (2006) Маркетинг банковских услуг. -М.: Медиа-Пресс.

Ибодов К.М. (2016) Банк хизматлари рақобатбардошлигининг маркетинг тадқиқотлари: Монография. -Тошкент "Наврӯз" нашриёти. -156 бет.

Иванов А.Н. (2002) «Банковские услуги: зарубежный и российский опыт» Москва «Ф и С» - 176 с.

Коробова Г.Г. (2015) Банковское дело: учебник для магистров / 2-е изд., -М.: ИНФРА-М, -408 с.

Лаврушин О.И., Ветрова Т.Н. (2015) Эффективность банковской деятельности: методология, критерии, показатели, процедуры // Банковское дело. № 5. С. 38-42.

Лаврушина И.О. (2009) Денги, кредит, банки: учебник/под ред. -8-е изд., перераб. и доп. -М.: КНОРУС, -560 с.

Масленченков Ю.С. (2013) Экономика банка: разработка по управлению финансовой деятельностью банка -. 2-е изд./Ю.С. Масленченков. -М.: БДЦ-пресс, -168 с.

Мирзаев Ф.И. (2010) "Ўзбекистонда банклараро рақобатни шакллантиришнинг концептуал асослари" Иқтисод фанлари доктори илмий даражаси олиш учун ёзилган диссертация автореферати. -Тошкент.

Мирзамайдинов Б.К. (2008) Банк хизматида маркетинг самарадорлиги (Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият миллий банки мисолида). Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. -Т.: ТДИУ.

Мустафаев Б.З. (1998) Банк маркетинги-молия бозори шаклланиши ва ривожланишнинг асоси. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. -Т.: ТДИУ.

Парусимова Н.И. (2013) Этапы развития посредничества российских банков // Вестник ОГУ. №8 (157). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/etapy-razvitiya-posrednichestva-rossiyskih-bankov>.

Тавасиева А.М. (2005) «Дополнительные операции для клиентов» Москва «Ф и С» -13 с.

Тоғаев С.С. (2021) Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореферат: 08.00.07 / Тошкент молия институти, - 51 б.

Уильям Ф. Шарп, Гордон Дж. Александр, Джейффири В. Бэйли. (2021) Инвестиции = Investments (with Gordon J. Alexander and Jeffrey Bailey), Prentice-Hall, 1999. -М.: Инфра-М, - 1028 с.

Уткин, Э.А. (1994) Банковский маркетинг: учебное пособие для с вузов /Э.А.Уткин. - Москва: ИНФРА-М; Метаинформ, - 304 с.